

Mundarija

Kirish	5
1.Umumiy qism	
1.1. Detalning vazifasi.....	8
1.2.Ishlabchiqarishturini aniqlash.....	10
2.Texnologik qism	
2.1. Detal konstruktsiyasini texnologiklikka tahlil.....	14
2.2.Zagotovkatanlash.....	16
2.3.Zagotovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi.....	17
2.4. Texnologik marshrutini ishlab chiqish.....	21
2.5. Kesish rejimlarini hisoblash	24
2.5. Vaqt meyorini hiosblash	25
3.Konstruktorlik qismi	
3.1.Dastgoh moslamasining bayoni va hisobi.....	27
3.2. Dastgoh moslamasining aniqlik hisobi	28
3.3. Kesuvchi asbob bayoni va hisobi	30
3.4. Tekshiruvchi moslamaning hisobi	32
4. Iqtisodiy qism	34
5.Mehnat-muhofazasi	47
Xulosa	53
Foydalanilganadabiyotlar	54
Ilovalar	

Kirish

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng hayotimizni butun jabhalarida xalqimizning turmush darajalarini yuksaltirish va iqtisodiy tomondan ravnaq toptirishga katta e'tibor berilmoqda.

Biz taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib o'tgan ozod, erkin va faravon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli maxsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va shu asosda axoli daromadlarini ko'paytirish va farovonligini oshirish, mamlakat tarakkiyoti yo'lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivjlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan chiqarilayotgan bir qator qonun va qarorlar avvalo inson qadriyatlarini muhofaza qilish va muhofazalashga qaratilgan. Shu asosda mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri - mashinasozlik sanoati ishlab chiqarishini yuksaltirish, fan va texnika taraqqiyotini dunyo miqyosiga olib chiqishdan iborat. Mahlumki Respublikamiz xalq xo'jaligini rivojlantirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bu-mashinasozlik sanoati ishlab chiqarishini yangi fan va texnologiyalarga asoslangan xolda tashkil etishdan iborat.

Ishlab chiqarishning barcha tarmoqlariga yangi texnikani yetkazib beradigan mashinasozlik mamlakatning texnik jihatdan rivojlanishini belgilaydi va yangi mustaqil respublikamizning moddiy bazasini yaratishda xalq qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun Respublikamizda mashinasozlikni rivojlantirishga har doim birinchi darajali ahamiyat berilgan va berilmoqda. Mustaqillikning birinchi yillarida 1996 yil O'zbekistonda davlatimiz birinchi prezidenti I.Karimov sa'y - harakatlari evaziga Janubiy Koreyaning "DAEWOO avto" LTD kompaniyasi bilan hamkorlikda Andijon

viyotining Asaka shahrida “O’zDEU avto” YoTHJ qo’shma korxonasi ishga tushirila boshlashi O’zbekistonni dunyoning «Avtomobillar tarixi» zarvaraqlaridan 28-avtomobil ishlab chiqaruvchi davlati sifatida joy olishini tahminladi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bilan avtomobilsozlikka ehtibor yanada kuchayib, 1999 yilda Samarqandda Turkiya davlati bilan hamkorlikda “Sam Kochavto” qo’shma korxonasi ishga tushirildi. Bu korxonada o’rta sig’imli avtobuslar, kichik va o’rta sig’imli yuk avtomobillari ishlab chiqarila boshladi. Loyiha quvvati yiliga 3000 dona avtobus va 1000 dona yuk avtomobillarini tashkil etadi.

Ushbu avtomobil zavodlarida ishlab chiqarilayotgan yengil avtomobil, avtobus va yuk avtomobillari nafaqat O’zbekiston aholisining ehtiyojlarini qondirmoqda, balki Rossiya, boshqa MDH Respublikalari hamda boshqa chet el davlatlariga ham eksport qilinmoqda.

2012 yilda Toshkenda ishga tushirilgan va yiliga 200 ming donadan ziyod avtomobillar dvigateli ishlab chiqarishga mo’ljallangan zavod "GM-UZBEKISTAN" qo’shma korxonasiga dvigatellar yetkazib beradi.

Bularning hammasi vatanimiz avtomobilsozligini rivojlantirish va ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning sifat ko’rsatkichlarini dunyo standartlariga to’la javob berishini tahminlash zarurligini ko’rsatib turibdi. Avtomobillarimizdan dunyoning qaysi chekkasida foydalanilsa ham, ularni uzoq vaqt buzilmay ishlashini tahminlashimiz eng asosiy masalalardan biridir.

Yuqori unumdorli avtomatlashtirilgan va yuqori aniqlikka ega bo’lgan takomillashgan mashinalarni fanning eng yangi yutuqlari asosida uzluksiz ravishda yaratish yuqori malakali chuqur bilimga ega bo’lgan va yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyasini mukammal biladigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. O’zbekistonimizni har tomonlama rivojlantirish uchun yetuk kadrlarni tayyorlash ularga ilm-fanning eng ilg’or yutuqlari orqali bilim berishda Prezidentimiz aytganlaridek «..kuchli ruhiy quvvat beradigan milliy madaniyatimiz, Sharq falsafasining hayotbaxsh va teran buloqlaridan bazramand bo’lish muximdir.»

Texnika taraqqiyoti riqojlangan sari takomillashtirilgan, yuqori aniqlikka ega

bo'lgan mashinalarni ishlab chiqarish hamda ulardan samarali foydalanish uchun chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni vaqt taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodlari, ixtisoslashtirilgan konstruktorlik byurolari va juda ko'p ilmiy tadqiqot institutlari chngi mashina va mexanizmlarni yaratish borasida unumli faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Mexanik ishlov berish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, yuqori unumdorli dastgohlardan, moslamalardan, kesuvchi asboblar va kesish rejimlaridan foydalanish, detalg' tannarxini kamaytirish, elektr energiyasi va boshqa sarflarni kamaytirish ishlariga aloxida ahamiyat Texnologik mashinalarni ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash uchun Respublikamizning turli xududlaridagi tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga oluvchi ilmiy asoslangan mashinalar tizimi yaratilgan.

Qishloq xo'jaligida deyarli barcha ishlar, jumladan, yer xaydash, tekislash, tuproqni ekin ekishga tayyorlash, o'g'itlash, parvarishlash, hosil yig'ish mexanizatsiyalashtirildi. Chunonchi, dehqonchilikda industrial texnologiyani joriy etish uchun serunum texnikalar turkumlari yaratilmoqda: kuchli, tezkor traktorlar keng qamrovli va tezkor mashina-qurollar unifikatsiya qilinmoqda va universallashtirilmoqda, sifati va puxtaligi oshirilmoqda. Mashinalarni loyihalashda ularni metall sig'imini kamaytirish, ekspluatsion ko'rsatkichlarini yaxshilash ishlari olib borilmoqda; gidravik va elektr yuritmalar, avtomatik boshqarish vositalari ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Ayniqsa, yerga ishlov berishda bir vaqtning o'zida bir necha jarayonlarni bajaruvchi mashinalar komplekslarini yaratish ishlari davom ettirilmoqda.

Diplom loyihasida N=21000 dona bo'lgan "Val-shesternya" detaliga mexanik ishlov berish uchun zamonaviy texnologik jarayon loyihalangan bo'lib, loyihada zagotovkalar tanlashning progressiv usullarini qo'llash, detallarga berilgan.

1. Umumiy qism

1.1. Detalning vazifasi

Val-shesternya tipidagi detallar tsilindrsimon detallar qatoriga kiradi va ularning asosiy vazifasi burovchi momentni shesternyalar orqali boshqa valga yoki tishli g'ildiraklarga uzatib berishdan iborat. Loyihalananayotgan ushbu val detali 4 ta pog'onaga ega bo'lgan pog'onali val detalidir.

Mashinasozlikda vallar quyidagi klassifikatsiyalarga bo'linadi:

Xizmat vazifasi bo'yicha: uzatish vallari, uzatiluvchi vallar.

O'qining geometrik shakli bo'yicha: to'g'ri, tirsakli va egiluvchan o'qli.

Konstruktsiyasi bo'yicha: tekis (barcha diametrlari bir xil bo'lgan), pog'onasimon (bo'yinlar-tsilindrsimon, konussimon).

Vallarni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy materiallar bo'lib quyidagi materiallar xizmat qiladi: po'lat, agar termik ishlov berish amalga oshirilmasa St5, St6; agar termik ishlov berilsa u holda material St40, St45; katta kuchlanish sharoitida ishlatiladigan vallarning materiallari sifatida legirlangan po'latlar ishlatiladi yahni, St40XN, St40XNMA. Diplom loyihasidagi val-shesternya detalining materialiga termik ishlov amalga oshiriladi va shuning uchun uning materiali sifatida St45 markali po'lat tanlangan.

Val-shesternya detaliga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning tsilindrsimon sirtlarining deformatsiyalarga bo'lgan turg'unligidir, yahni, detalg' mahlum tezlikda aylanadi va boshqa bir detalning sirti bilan shlitsalari orqali ishqalanish sharoitida ishlaydi. Shuning uchun aytish mumkinki, detalg' doimiy kuchlanishlar sharoitida ishlaydi va bu kuchlanishlar deformatsiyani keltirib chiqaradi. Ushbu deformatsiyalarga nisbatan valning turg'unligi qanchalik yuqori bo'lsa uning ishlash muddati shunchalik uzoq bo'ladi.

Yuqoridagi ish sharoitlaridan kelib chiqqan xolda detalni materialini albatta uning deformatsiyalanish sharoitlarini hisobga olgan holda tanlashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundan kelib chiqib, val-shesternyaning materiali sifatida St45 GOST 1050-88 materialini tanlaymiz. Bu material yetarli darajada mustahkamlikka ega bo'lib, valning bikrligini hamda mustahkamligini tahminlaydi, shu bilan birga bu

material kesib ishlov berish nuqtai nazardan yetarlicha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari val detalining zagotovkasini olish juda oddiy bo'lib, pokovka usulida olinadi.

Val-shesternyaning tutashuvchi qismlarinig zaruriy klassi-8, ($R_a=0,4$), maxkamlash sirti uchun -7 ($R_a=0,8$). Sirtlarning tozalik klassiga erishish uchun ikkita jilvirlash operatsiyasini amalga oshirish zarur bo'ladi – dastlabki va oxirgi jilvirlash).

Aniqlik bo'yicha yuqori talablar valning 2 ta $\varnothing 45$ mm li tsilindrik sirtlariga qo'yilgan va bu pog'onalarga ishlov berishda ularning o'qdoshligiga qo'yilgan talablarni bajarishga to'g'ri keladi.

1-jadval

St 45 markali po'latning kimyoviy tarkibi, % (GOST 4543-71)

C	Si	Mn	Cr	Ni	P	Cu	S
0,36-0,44	0,17-0,37	0,50-0,80	0,86-1,10	0,30	0,035	0.30	0,035

2-jadval

St 45 ning mexanik xossalari

Po'lat markasi	Mexanik xossalari					
Сталь 45	vg, kg/mm ²	Gots, kg/mm ²	δ %	Ψ , %	dn, kg/mm ²	HB
	64–76	36	15%	57%	8	197

Materialning texnologik xususiyatlari.

Bolg'alash temperaturasi, $^{\circ}S$: boshlanishida 1250, tugashida 800.

350 mm gacha kesim havoda sovitiladi.

Payvandlanuvchanligi-qiyin payvandlanuvchi.

Detal konstruktsiyasidagi asosiy yuza uning 2 ta $\varnothing 45$ mm va $\varnothing 50$ mm li sirtlari hamda shlitsali sirti bo'lib, bu sirtlarning aniqligiga va o'zaro joylashishiga yuqori aniqliklar qo'yilgan. Bu sirtlarga yakuniy ishlov berish jilvirlash operatsiyasi

orqali amalga oshiriladi. Val-shesternya detali eng mashuliyatli detallardan biri bo'lib turli mexanizmlarda burovchi momentni uzatib berishda ishlatiladi, detalning tashqi konturi va ichki yuzalari zagotovka olishda qiyinchiliklar keltirib chiqarmaydi.

1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash

Berilgan ishlab chiqarish sharoitida TJ ni loyihalashning asosiy tamoyillaridan biri texnikaviy, iqtisodiy va tashkiliy masalalarini birgalikda yechishdir. Loyihalananayotgan TJ mahsulotning aniqligini va sifatiga qo'yilgan barcha talablarni eng kam mehnat sarf qilingan holda minimal tannarxda hamda ishlab chiqarish dasturida belgilangan hajmda va muddatda tahminlashi kerak.

Zamonaviy ishlab chiqarish **yakka tartibli, seriyali va ommaviy** ishlab chiqarish turlariga bo'linadi. **Yakka tartibli ishlab chiqarishda** tayyorlanayotgan mahsulotning keng nomenklaturada, kam hajmda (hajm deganda, korxonaning rejalangan vaqt intervali ichida mahlum bir miqdordagi, nomdagi, o'lchamdagi, o'lchamlar toifasi bo'yicha mahsulotni ishlab chiqarishi tushuniladi). Mahsulotning hajmi oz bo'lib, texnologik operatsiyani bajarish joyiga sanoqli (birlar va o'nlar bilan hisoblanadi) zagotovka keladi. Ish joyida tez-tez takrorlanib turadigan yoki umuman takrorlanmaydigan turli xildagi texnologik operatsiyalar bajariladi. Bunda yuqori aniqlikka ega bo'lgan jihozlar ishlatiladi va ular texnologik guruhlar, yahni tokarlik, frezerlik, parmalash, tish kesish va boshqa uchastkalar asosida sexda joylanadi.

Yakka tartibli ishlab chiqarishda talab qilingan aniqlik **sinov yurish va o'lchash usuli** bilan aniqlanadi; detal va uzellarning o'zaro almashinuvchanligi aksariyat holda amalga oshmaydi, shuning uchun o'lchamlarni joyida keltirish keng qo'llanilladi; ishchilar yuqori malakali bo'lish shart, chunki mahsulotning sifati ularning malakasiga bog'liq; texnologik hujjatlar qisqartirilgan va soddalashtirilgan bo'ladi; texnik mehyorlar qo'llanilmaydi; mehnatni tajribaviy-statistik usulda mehyorlash qo'llaniladi.

Ommaviy ishlab chiqarish deb mahsulotni tor nomenklatura va katta hajmda uzoq muddat ichida uzluksiz tayyorlashga aytiladi.

GOST 3.1108-74 ga asosan ommaviy ishlab chiqarishda operatsiyalarning birikish

koefitsenti $K_{o.b.}$ birga teng, yahni har bir ish joyiga bittadan texnologik operatsiya doimiy ravishda birlashtirilgan bo'lib, unumdorligi yuqori bo'lgan maxsus jihozlardan foydalaniladi va ushbu jihozlar oqim bo'yicha (yahni, texnologik jarayonning ketma-ketligi bo'yicha) joylashgan bo'ladi. Zagotovkalarga yuqori unumdorli ko'pshpindelli avtomatlar va yarim avtomatlar, sonli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar va markazlarda ishlov beruvchi murakkab dastgohlarda ishlov beriladi. Zagotovkalarga mexanik ishlov berish uchun qo'yim kam qoldiriladi va zagotovkaning o'lchami detal o'lchamiga yaqin bo'ladi.

Talab etilgan o'lcham aniqligi avtomatik ravishda sozlangan dastgohlarda olinadi. Ommaviy ishlab chiqarishda ishchining o'rtacha malakasi yakka tartibli ishlab chiqarishdagi ishchining o'rtacha malakasidan past; sozlangan dastgoh va avtomatlarda nisbatan quyi malakali ishchi operatorlar ishlaydi. Shu bilan bir qatorda sexlarda malakali sozlovchi ishchilar, elektronli texnika va pnevmogidroavtomatika bo'yicha mutaxassislar ham ishlaydi.

Ommaviy ishlab chiqarishda texnologik hujjatlar har tomonlama chuqur ishlab chiqiladi va texnik mehyorlar esa har tomonlama hisoblanib alohida sinab ko'riladi.

Seriyali ishlab chiqarishga mahsulot nomenklaturasi chegaralangan, davriy ravishda takrorlanib turadigan partiyalarda va nisbatan ko'p miqdorda mahsulotni tayyorlash kiradi. Partiyadagi mahsulotning soniga va operatsiyalarning birlashtirish koefitsentiga qarab *mayda seriyali, o'rta seriyali va yirik seriyali* ishlab chiqarishlar mavjud. Bir oy ichida bajariladigan barcha texnologik operatsiyalar sonining ishchi joylar soniga nisbati orqali operatsiyalarning birlashtirish koefitsienti aniqlanadi. GOST 3.1108-74

ga asosan operatsiyalarning birlashtirish koefitsientiga qarab:

$K_{o.b.} \leq 1,0$ - ommaviy ishlab chiqarish

$1 \leq K_{o.b.} \leq 10$ - yirik seriyali ishlab chiqarish

$10 \leq K_{o.b.} \leq 20$ - o'rta seriyali ishlab chiqarish

$20 \leq K_{o.b.} \leq 40$ - mayda seriyali ishlab chiqarish

3- jadval

	Ishlab chiqarish turi
--	-----------------------

Detal og'irligi кг	Donali	Mayda seri- yali	O'rta seriyali	Yirik seriyali	Ommaviy
1,0- 2,5	<10	10-1000	1000-50000	50000-100000	>100000

Seriyali ishlab chiqarishda universal, maxsuslashgan va qisman maxsus jihozlar ishlatiladi. Shu bilan birga ishlov beruvchi markazlar, universal-yig'ma va qayta tez sozlanadigan texnologik jihozlar ham keng ko'lamda qo'llaniladi. Zamonaviy ishlab chiqarishning asosi bo'lib seriyali ishlab chiqarish hisoblanadi. Chunki hozirgi vaqtda seriyali ishlab chiqarish mashinasozlikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 75-80 foizini tashkil qiladi.

Yirik seriyali ishlab chiqarishda sonli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar, markazda ishlov beruvchi dastgohlar, transport vositalari bilan bog'langan va EHM bilan boshqariladigan moslanuvchan avtomatlashtirilgan tizimlar, tez qayta sozlanuvchi moslamalar va uskunalar keng qo'llaniladi. Talab etilgan o'lcham aniqligi avtomatik usulda yoki sinov yurish va o'lchash usullari bilan olinadi.

Berilgan yillik ishlab chiqarish xajmiga asosan ishlab chiqarish takti aniqlanadi.

$$\tau = \frac{F_{\delta} \cdot 60}{N}$$

Bu yerda F_{δ} - jihozlarni yillik ishlash vaqti fondi.

$F_{\delta} = 2015$ coat (bir smenali ish rejimi)

N - yillik ishlab chiqarish xajmi.

$N = 21000$ dona

Ishlab chiqarish taktini hisoblaymiz

$$\tau = \frac{120900}{21000} = 5.75 \text{ù}$$

O'rtacha donali vaqt

$$t_{\text{od}} = \frac{\sum F_g}{h}$$

bu yerda

$h = 6$ - operatsiyalar soni

$$t_{\text{od}} = \frac{11,5}{6} = 1,91$$

U xolda seriyaviylik ko'effitsenti

$$Kc = \frac{\tau}{h} = \frac{5.75}{1,91} = 3.01$$

Yuqoridagi natijaga ko'ra bu holatda ishlab chiqarish turini o'rta seriyali deb qabul qilamiz.

2. Texnologik qism

2.1. Detal konstruktsiyasini texnologiyaviylikka tahlil qilish

005.Frezalash jarayoni.1-o'tish.Ø42 mm yuza 62N8 o'lchamni saqlagan holda frezalash.

Operatsiya nomeri	Operatsiyaning nomlanishi	Jihoz
005	frezalash	MP71
010	tokarlik	1721
015	tokarlik	1721
020	frezalash	6R13
025	frezalash	6R13
030	jilvirlash	3M51
035	jilvirlash	3M51
040	frezalash	DF-96
045	tish frezalash	5313
055	shevingovalnaya	57028
	Nazorat	

Detal konstruktsiyasini texnologiyaboplikka tahlil etish mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni texnologik jihatdan tayyorlash vaqtini hamda harajatlarini qisqartirish maqsadida amalga oshiriladi. Detal konstruktsiyasini texnologiyabop deb atash mumkin, qachonki u mahsulotni tayyorlashda soddaligi va iqtisodiyligini namoyish etsa va u quyidagi talablarni bajarishi kerak bo'ladi:

1. Maxsulot konstruktsiyasini yaratishda yuqori unumdorli ishlab chiqarish usullarini qo'llash imkonini beradigan oddiy geometrik formalardan foydalanish
2. Detalning konfiguratsiyasi va materiali mexanik ishlov berish xajmini qisqartiradigan eng progressiv zagotovkalardan (aniq quymalar, bosim ostida quyib

olingan quyma, xajmiy shtamplash, cho'zish, sovuqlayin shtamplash va xokazo) foydalanish imkonini berishi.

Loyihalalayotgan val-shesternya detalining konstruksiyasini bir qarashda texnologik jihatdan mexanik ishlov berish uchun qulay ko'ringani bilan uning oddiy mexanik ishlov berish usullari orqali sirtlarga ishlov berishga to'sqinlik qiladigan sirtlari ham mavjud. Masalan, valning konussimon sirtida joylashgan shponka ariqchasiga ishlov berish uchun zagotovkani vertikal parmalash dastgohi shpindeliga perpendikulyar ravishda o'rnatishni talab etadi. Chunki uning barcha ishlov beriladigan yuzalariga mexanik ishlov berishda qiyinchiliklar paydo bo'lmaydi va shuning uchun texnologik jarayonni loyihalashda yuqori unumdorli dastgohlar, moslamalar, kesuvchi asboblari va kesish rejimlaridan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari val-shesternya detalining texnologik jarayonini loyihalashda val tipidagi detallarga ishlov berishning tipik texnologik jarayonlaridan foydalanish imkonini beradi. Buning natijasida loyihalash va ishlab chiqish ishlari xajmi kamayib, unumdorlikni ortishiga olib keladi.

Detal konstruksiyasining konussimon sirtida joylashgan shponka ariqchasi mexanik ishlov berish nuqtai nazardan biroz qiyinchilik keltirib chiqaradi. Chunki bu ariqchaga ishlov berishda vertikal-frezalash dastgohidan foydalanish mumkin, biroq frezaga nisbatan zagotovkani mahlum burchak ostida o'rnatish talab etiladi. Ushbu masalani xal etishda tsilindrik zagotovkalarni burchak ostida o'rnatishga imkon beruvchi maxsus moslamadan foydalanish ko'zda tutilgan.

Detalning boshqa barcha ishlov beriladigan yuzalari ishlov berish aniqligini va yuzalar g'adir-budurliklarini tahminlash nuqtai nazardan texnologik qiyinchiliklar chiqarmaydi va bir nechta detallarga bir o'rnatishda hamda yuqori unumdorli dastgohlarda ishlov berish va o'tuvchi ishlov berishlardan foydalanish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, detalga yetarli darajada texnologiyabop hisoblanadi. Masalan, detalning tsilindrik sirtlariga universal tokarlik dastgohlarida, shlitsali sirtiga esa gorizontal frezalash dastgohida diskli freza yordamida ishlov berish mumkin. Ishlov berishda oddiy standart kesuvchi asboblari,

moslamalar va o'lchov asboblariidan foydalanish imkoni mavjud.

2.2. Zagotovka tanlash

Hozirga zamon mashinasozligi boshlang'ich zagotovka turini va uni olishning ratsional usulini tanlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Detalni ishlab chiqarish xajmi qanchalik ko'p bo'lsa, zagotovka olishning progressiv usullaridan foydalanishni taqozo etadi, yahni zagotovkani shakli va o'lchamlari detalning o'lchamlari va shakliga maksimal yaqinlashtirib tayyorlanadi.

Diplom loyihasida ko'rilayotgan val shesternya detalining yillik ishlab chiqarish xajmi $N=21000$ donani tashkil qilganligi uchun, detalni zagotovkasini tanlashda yuqorida aytib o'tilgan zagotovkalar olishning progressiv usulidan foydalanishimiz zarur bo'ladi.

Mashinasozlikda zagotovkalarining asosiy turlari po'lat va cho'yan quymalar, rangli metallar va qotishmalar quymalari, shtampovkalar va prokatlarning boshqa barcha turlari hisoblanadi.

Zagotovkalarni olish usuli berilgan ishlab chiqarish xajmiga mos ravishda kamsarf va iqtisodiy nuqtai nazardan tannarxi arzon bo'lishi kerak bo'ladi. Detalning konstruksiyasi va materiali zagotovkalar olish usuliga katta tahsir ko'rsatadi. Zagotovkaning turi texnologik jarayon harakteriga, mexnat xajmiga va iqtisodiylikka sezilarli tahsir o'tkazadi.

Metallsimon zagotovkalarga prutok va truba ko'rinishidagi po'lat va rangli metallardan prokatlar (oddiy va murakkab profilli), pokovkalar, listli shtamplash va quymalar kiradi. Juda ko'p vallar, vtulkalar, shaybalar va xalqalar yumaloq, olti qirrali va kvadrat ko'rinishdagi zagotovkalardan tayyorlanadi. Yirik va murakkab shaklli detallar quyma, kovka va shtamplash usullarida olingan donali zagotovkalardan tayyorlanadi. Zagotovkaning o'lchamlari detalning o'lchamlaridan birmuncha kattaroq tayyorlanadi, chunki detalning barcha ishlov beriladigan sirtlariga mahlum miqdorlarda qo'yimlar qoldiriladi va bu qo'yimlar mexanik ishlov berish orqali zagotovka sirtidan kesib olinadi. Qo'yimlar imkon darajasida minimal miqdorda belgilanishi lozim yahni zagotovkaning shakli va o'lchamlari detalning

shakli va o'lchamlariga maksimal darajada yaqinlashtirib tayyorlanishi lozim bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda loyihalananayotgan val detalining zagotovkasi sifatida pokovka usulini tanlaymiz. Bu usulda zagotovkalar olishda yuqori unumdorlikka va yuqori aniqlikka erishish tahminlanadi.

Detalning materiali sifatida po'lat 45 (GOST 1050-88) markali po'latni tanlaymiz. Bu material barcha ko'rsatkichlari bo'yicha loyihalananayotgan val detalining xizmat vazifalarini ishonchli bajarishini tahminlaydi.

Detalning ishchi chizmasi bo'yicha uning tsilindirsimon yuzalari, 1 ta prizmatik shponka ariqchasi hamda M20x2 o'lchamli metrik rezg'bani kesish nazarda tutiladi. Detalg' yetarli darajada mustahkam va biki bo'lganligi sababli texnologiyaviy deb hisoblash mumkin.

Ishlab chiqarish turi yirik seriyali bo'lganligi sababli detalni zagotovkasini tayyorlashda va mexanik ishlov berishda yuqori unumdorli zagotovkalar olish usullari va yuqori unumdorli dastgohlarni qo'llash imkonini beradi.

2.3. Zagotovkaga ishlov berishda qo'yimlarni hisoblash

Boshlang'ich zagotovkaning chizmasi tayyor detalning chizmasidan, avvalambor, shu bilan farqlanadiki, zagotovkaning barcha ishlov beriluvchi sirtlariga qo'yim qatlamlari qoldiriladi va bu qo'yimlar zagotovkaning o'lchamlarini, bahzi hollarda shaklini ham o'zgartirib yuborishi mumkin.

Mexanik ishlov berishda umumiy qo'yim deb, tayyor detal olish uchun mexanik ishlov berish jarayonida boshlang'ich zagotovka sirtidan olib tashlanadigan material qatlamiga aytiladi. Ishlov berishda qo'yim o'lchamlarini to'g'ri tanlash uchun texnik iqtisodiy masalalarni yechish kerak. Qo'yim qatlamiga zagotovkani olish texnologiyasi ham tahsir ko'rsatadi. Juda ham katta qo'yimlarni belgilash materialning isrof bo'lishiga, mexanik ishlov berishda ish hajmining ortishiga, kesuvchi asbob va elektr energiya sarfining oshib ketishiga olib keladi.

Agar qo'yim qatlami yetarli miqdorda belgilanmasa materialning nuqsonli qatlamini kesib olib tashlashga va ishlov beriluvchi sirtlarning yetarli aniqligiga va

g'adir-budirligiga erishib bo'lmaydi, shu bilan birga zagotovka aniqligiga bo'lgan talabning ortishiga va buning evaziga uning tannarxi oshib ketishiga olib keladi.

Operatsion qo'yim deb bitta texnologik operatsiyani bajarishda zagotovka sirtidan kesib olinadigan materialning qatlamiga aytiladi. Operatsion qo'yim oraliq qo'yimlar, yahni shu operatsiyaga kirgan har bir alohida o'tishlar uchun qoldirilgan qo'yimlarning yig'indisiga teng.

Diplom loyihasi qo'yimlarning batafsil hisoblari detalning eng aniq sirlari yoki zagotovkaning gabarit o'lchamlarini aniqlaydigan (tashqi yoki ichki) sirlari uchun bajariladi.

Mexanik ishlov berish uchun qo'yimlarni hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar sifatida quyidagilar ishtirok etadi va ular hisoblashni boshlashdan oldin yoziladi:

- zagotovka olish usuli;
- detalg' chizmasi bo'yicha sirt o'lchami;
- sirtga ishlov berish marshruti.

Hisoblashda har bir sirt uchun hisobiy jadval va qo'yim va joizliklarning grafik joylashish sxemasi keltiriladi. Barcha hisoblar ularni to'g'ri bajarilganligini tekshirish bilan yakunlanadi.

Boshqa barcha ishlov beriladigan sirtlar uchun qo'yimlar belgilanadi: pokovkalar uchun GOST 7505-89 bo'yicha, quymalar uchun GOST 26645-85 bo'yicha.

Qo'yimlarning barcha qiymatlari jadvalga kiritiladi.

Qo'yimlarni hisoblash uchun quyidagi formulalar qo'llaniladi:

- yassi sirtlarga ketma-ket ishlov berishda asimmetrik qo'yimlar uchun

$$z_{i \min} = (Rz_{i-1} + h_{i-1}) + |\Delta_{i-1} + \varepsilon_i|;$$

- tashqi va ichki aylanma sirtlarga ishlov berishda simmetrik qo'yimlar uchun

$$2z_{i \min} = 2 \left[(Rz_{i-1} + h_{i-1}) + \sqrt{\Delta_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2} \right].$$

Keyingi o'lchamli, kuch hisoblarida nominal, o'rta, maksimal qo'yimlar va joizliklar degan tushunchalar qo'llaniladi

$$z_{i\text{HOM}} \equiv z_{i\text{min}} ;$$

$$z_{i\text{cp}} = (z_{i\text{max}} + z_{i\text{min}}) / 2 ;$$

$$2z_{i\text{max}} = 2[z_{i\text{min}} + (T_{i-1} - T_i)] ;$$

$$T_{iz} = z_{i\text{max}} - z_{i\text{min}} .$$

Bu yerda Rz_{i-1} - oldingi o'tishdagi notekisliklar balandligi;

h_{i-1} – sirtning oldingi o'tishdagi nuqsonli qatlami chuqurligi;

Δ_{i-1} – sirt joylashishining yig'indi (summarinqy) og'ishi (parallellikdan, perpendikulyarlikdan, o'qdoshlikdan, simmetriklilikdan, o'qlarning kesishishidan og'ishlar) va bahzi hollarda sirt shaklining og'ishi (oldingi o'tishdagi yassisimonlik, to'g'ri chiziqlikdan og'ish)

ε_i – bajarilayotgan o'tishdagi zagotovkaning o'rnatish xatoligi;

T_{i-1} yoki T_i – oldingi va bajarilayotgan o'tishlardagi joizliklar.

Rz_{i-1} , h_{i-1} , Δ_{i-1} , ε_i , T_{i-1} va T_i qiymatlar uchun meyoriy materiallar [8, 2]

adabiyotda keltirilgan. Ishlov berishdagi oraliq va umumiy qo'yimlar tayyor detaldan boshlang'ich zagotovkagacha barcha texnologik o'tishlar uchun ishlov berilayotgan sirtning hisobiy o'lchamlarini aniqlash uchun amalga oshiriladi (34 ilova).

Loyihada hisob-analitik usul bilan aniqlangan qo'yimlarni jadval usulida tanlangan qo'yimlar bilan taqqoslash tavsiya etiladi.

Yuqorida biz val-shesternya detalining zagotovkasi sifatida pokovka tanlab olinganligini tahkidlagan edik. Detalning ishlov beriladigan sirtlariga qo'yimlar GOST 26645-85 bo'yicha belgilanadi.

Detalning asos sirtiga Ø45 mm o'lchamdagi 2 ta sirtiga ishlov berish uchun oraliq va umumiy qo'yimlarni hisoblaymiz.

Hisoblarni osonlashtirish maqsadida jadval tuzib olamiz.

Qo'yimlarni hisoblash jadvali

Ishlov berish turi	Kvalitet	Dopusk Td, mkm	Rz , mkm	h, mkm
Pokovka	14	560	80	80
Yo'nish (tokarlik)	9	150	20	20

Ushbu ko'rinishdagi pokovka uchun

$$Rz+h=400 \text{ mkm}$$

Tokarlik operatsiyalari uchun detallarni patronda qisishda o'rnatish xatoligi mos ravishda quyidagicha bo'ladi: $\varepsilon_1 = 500 \text{ mkm}$; $\varepsilon_2 = 250 \text{ mkm}$.

Pokovkalar uchun to'g'ri chiziqliklikdan chetga chiqish 1 mm uzunlikda 12 mkm ni tashkil etadi.

Koroblenie kattaligi detalning 1 mm o'lchamiga 0,3...0,5 mkm ni tashkil qiladi, shuning uchun 1 deb qabul qilamiz:

$$\Delta k = 1 * 19 = 19 \text{ mkm}$$

$$\Delta k = 12 * 19 = 108 \text{ mkm}$$

$$\Delta = \sqrt{108^2 + 19^2} = 110 \text{ mkm}$$

Minimal qo'yimni quyidagi formula bo'yicha hisoblaymiz:

$$Z_{\min} = 400 + 110 + 500 = 1010 \text{ mkm}$$

Hisoblarni to'g'ri bajarilganligini tekshirib ko'ramiz:

$$Td_z - Td_d = Z_{\max} - Z_{\min};$$

$$Z_{\max} = 1320 \text{ mkm};$$

$$Z_{\min} = 1000 \text{ mkm};$$

$$560 - 240 = 1320 - 1000$$

320 = 320, ko'rinib turibdiki hisob to'g'ri bajarilgan

Natijalarni quyidagi jadvalga kiritamiz:

Detalning nomi – Val shesternya Materiali – St 40X. Qo'yimni hisoblash sirti - Ra=12.5 mkm g'adir-budirlikka teng bo'lgan 2 ta Ø45 mm li tsilindrik sirt											
Ishlov berish marshruti	Qo'yim elementlari, mkm				Hisobiy qo'yim Z_{min} , mm	Hiso-biy mini-mal o'lcham, mm	Dopus k d, mm	O'tishlar bo'yicha qabul qilingan o'lchamlar, mm		Qo'yimning chetki qiymatlari, mkm	
	Rz	T	r	Rz				Bmax	Bmin	Zmax	Zmin
Zagotovka	400		11 0	-	-	42	560	44,56	44	-	-
Tokarlik	40	4 0	10 0	50 0	1010	41	240	44,24	43	1,32	1

2.4. Detalga mexanik ishlov berish texnologik marshrutini ishlab chiqish

Operatsiya nomeri	Operatsiyaning nomlanishi	Jihoz
005	tokarlik	1A730
010	tokarlik	1A730
015	tokarlik	16K20
020	frezalash	6R13
025	frezalash	6R13
030	jilvirlash	3M51
	Nazorat	

Texnologik jarayon operatsiyalari bo'yicha aniqlik kвалitetlari

Operatsiya nomeri	Operatsiyaning nomlanishi	Bosqich	Aniqlik kвалiteti	
			diametrli o'lchamlar	bo'ylama o'lchamlar
005	tokarlik	dag'al	12	12
010	tokarlik	dag'al	12	12
015	tokarlik	tozalab	8	-
015	frezalash	tozalab	-	8
020	frezalash	tozalab	-	8
025	jilvirlash Nazorat	tozalab	7	7

2.5. Kesish rejimlarini hisoblash

Ishlov berish rejimlari barcha texnologik operatsiyalar uchun umum mashinasozlik vaqt normativlari hamda kesish rejimlari bo'yicha belgilanadi. Bundan tashqari kesish rejimlari EXM larida yoki hisob-analitik usul bilan aniqlanadi. Loyihada kesish rejimlarini hisoblash biror operatsiya uchun hisob analitik usul bilan hisoblanadi, boshqa barcha texnologik operatsiyalar uchun kesish rejimlari jadval usulida tanlanadi.

Vertikal-frezalash operatsiyasi uchun kesish rejimlarini hisoblash.

Kesish rejimlari elementlarini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- kesish chuqurligi t : dag'al ishlov berish jarayonida kesish chuqurligini katta qiymati qabul qilinadi va qo'yim qatlaminig katta qismi kesib olinadi, tozalab ishlov berishda esa qo'yim qatlaminig qolgan qismi o'lchamlar aniqligi va sirtlar g'adir-budirligiga mos ravishda kesib olinadi;

-surish s : dag'al ishlov berishda texnologik tizimning bikrligi va mustahkamligi, dastgoh yuritmasining quvvati, kesuvchi asbob mustahkamligini inobatga olgan xolda maksimal qiymat tanlanadi, tozalab ishlov berishda esa – olinayotgan o'lcham

aniqligi va sirt g'adir-bdirligiga qarab tanlanadi. Tanlangan surish qiymati dastgohning pasport ma'lumotlari bilan moslashtiriladi.

- kesish tezligi V empirik formulalar yordamida hisoblanadi;

- shpindelning aylanishlari chastotasi n – hisoblangan kesish tezligiga qarab aniqlanadi va dastgohning pasport ma'lumotlari asosida korrektsiyalanadi. So'ngra kesish tezligining xaqiqiy qiymatlari aniqlanadi.

- dastgoh shpindelidagi kesish kuchi, kesish quvvati, burovchi momenti aniqlanadi.

Kesish quvvati dastgoh yuritmasi quvvatidan ortib ketmasligi kerak..

005-Tokarlik operatsiyasi uchun kesish rejimlarini hisoblaymiz

Sirtga ishlov berish marshruti quyidagicha:

1. Zagotovkani $\varnothing 45$ mm diametrlı sirtini dag'al yo'nish

2. Zagotovkani $\varnothing 45$ mm diametrlı sirti tozalab yo'nish

Barcha o'tishlar uchun kesish chuqurligi: $t = 2$ mm

Barcha o'tishlarda surish qiymati: $S = 0,3$ mm/ayl

$S_z = 0,3 * 40 * 6 = 72$ mm/tish

Yo'nishda kesish tezligini V , m/min ni hisoblaymiz:

$$V = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S_z^y} \cdot K_v,$$

bu yerda $C_v=46,7$; $x=0,5$; $y=0,5$; $m=0,33$; $q=0,45$; $u=0,1$; $\epsilon=0,1$;

$K_v=0,85$ [4];

$T=120$ min.

$$V = \frac{46,7 \cdot 80^{0,45}}{120^{0,33} \cdot 2^{0,51} \cdot 0,3^{0,45}} \cdot 0,85 = 51,8 \text{ m/min}$$

Zagotovkaning aylanish chastotasi n , min^{-1} :

$$n = 1000 * V \cdot \pi * D = 1000 * 51,8 \cdot 3,14 * 80 = 412 \text{ min}^{-1}$$

bu yerda D – ishlov berilayotgan sirt diametri, mm.

Shpindelning xaqiqiy aylanish chastotasi dastgoh pasporti bo'yicha moslashtiriladi:

$$n = 380 \text{ min}^{-1}.$$

Kesish tezligining xaqiqiy qiymati:

$$V = \frac{\pi \cdot D \cdot n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 80 \cdot 380}{1000} = 47,73 \text{ m/s}$$

Kesish kuchi P_Z ni hisoblaymiz:

$$P_Z = (10 \cdot C_P \cdot t^x \cdot S^y \cdot B^u \cdot Z) \cdot K_{MP} / D^q \cdot n^w,$$

bu yerda $C_P = 68,2$; $x = 0,86$; $y = 0,72$; $u = 1$; $q = 0,86$; $w = 0$ [5]

$$K_{MP} = (520/750)^n = (520/750)^{0.3} = 0,89 \text{ [4];}$$

Formula bo'yicha hisoblaymiz:

$$P_Z = 2605 \text{ H}$$

Kesish quvvati N quyidagiga teng:

$$N = \frac{P_Z \cdot V}{1020 \cdot 60} = \frac{2605 \cdot 47,73}{61200} = 2,03 \text{ kW}$$

- yahni dastgoh yuritmasining quvvatidan kichik.

Xuddi shu tartibda boshqa o'tishlar uchun ham kesish rejimlarini

hisoblaymiz:

$$V = \frac{46,7 \cdot 8^{0,45}}{120^{0,33} \cdot 2^{0,51} \cdot 0,3^{0,45}} \cdot 0,85 = 25,3 \text{ m/s}$$

Shpindelning aylanishlar chastotasi n , min^{-1} :

$$n = 1000 \cdot V / (\pi \cdot D) = 1000 \cdot 25,3 / (3,14 \cdot 80) = 1007 \text{ min}^{-1}$$

Shpindelning xaqiqiy aylanish chastotasi dastgoh pasporti bo'yicha

moslashtiriladi:

$$n = 1000 \text{ min}^{-1}.$$

Kesish tezligining xaqiqiy qiymati:

$$V = \frac{\pi \cdot D \cdot n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 80 \cdot 1000}{1000} = 25,12 \text{ m/s}$$

Kesish kuchi P_Z quyidagiga teng:

$$P_Z = (10 \cdot C_P \cdot t^x \cdot S^y \cdot B^u \cdot Z) \cdot K_{MP} / D^q \cdot n^w,$$

bu yerda $C_P = 68,2$; $x = 0,86$; $y = 0,72$; $u = 1$; $q = 0,86$; $w = 0$ [5]

$$K_{MP} = (520/750)^n = (520/750)^{0.3} = 0,89 \text{ [4];}$$

Hisob bo'yicha erishamiz:

$$P_z = 615 \text{ H}$$

Kesish quvvati N quyidagiga teng:

$$N = \frac{P_z \cdot V}{1020 \cdot 60} = \frac{615 \cdot 25,12}{61200} = 0,25 \text{ kBm}$$

Boshqa barcha operatsiyalar uchun kesish rejimlari ushbu tartibda hisoblanadi.

2.6. Vaqt me'yorini hisoblash

005 Tokarlik operatsiyasi uchun donali vaqt normasini hisoblash.

Operatsiyaning asosiy vaqtini aniqlaymiz:

$$T_o = \frac{L_i \cdot i}{S},$$

bu yerda L_i – kesish yo'li uzunligi, mm;

i – o'tishlar soni;

S – surish, mm/min.

$$T_{o1} = 55 \cdot 1 / 380 \cdot 0,3 = 0,48 \text{ min}$$

$$T_{o2} = 55 \cdot 1 / 380 \cdot 0,3 = 0,59 \text{ min}$$

$$T_{o3} = 76 \cdot 1 / 1000 \cdot 0,3 = 0,37 \text{ min}$$

$$T_o = 0,48 + 0,48 + 0,25 = 1,44 \text{ min}$$

Operatsiyaning yordamchi vaqtini aniqlaymiz:

$$T_e = t_{ycm.} + t_{nep.} + t_{uzm.} + t_{don.},$$

bu yerda t_{ust} – detalni o'rnatish va yechish uchun sarflangan yordamchi vaqt;

t_{per} – o'tish bilan bo'liq bo'lgan yordamchi vaqt;

t_{izm} – o'chirilgan dastgohda ishlov berilgan sirtini o'lchash uchun sarflangan yordamchi vaqt;

t_{dop} – tezlik va surishni o'zgartirish uchun sarqlangan yordamchi vaqt.

Detalni moslamaga maxkamlash, tezlik va surishni almashtirish uchun sarflangan vaqtni vaqt normativlari bo'yicha aniqlaymiz:

$$\dot{O}_{ii} = 1,44 + 0,43 = 1,87 \text{ iei} .$$

Dastgohga xizmat ko'rsatish vaqtini hisoblaymiz:

$$T_{o\acute{o}c.} = 4\% \cdot T_{on}$$

$$\dot{O}_{i\acute{a}\acute{n}.} = 0,04 \cdot 1,44 = 0,05\grave{i}\grave{e}\acute{i} .$$

Dam olish vaqtini hisoblaymiz:

$$\dot{O}_{i\acute{o}\acute{a}.} = 4\% \cdot \dot{O}_{\acute{i}\acute{r}}$$

$$\dot{O}_{i\acute{a}\acute{n}.} = 0,04 \cdot 1,87 = 0,07\grave{i}\grave{e}\acute{i} .$$

Donabay vaqtni topamiz:

$$T_{um} = T_o + T_{o\acute{o}c.} + T_{om\grave{d}.}$$

$$\dot{O}_{\phi\acute{o}} = 1,44 + 0,05 + 0,07 = 1,56\grave{i}\grave{e}\acute{i} .$$

Boshqa operatsiyalar uchun vaqt meyorlarini jadval usulida aniqlaymiz:

7-jadval

operatsiya nomeri	To	Tu.s.	Tz.o.	Tup.	Tiz	Tv	Top	Tob	Tsht
005 tokarlik	1,44	0,02	0,02	0,03	0,02	0,006	1,53	0,03	1,56
010 tokarlik	1,04	0,06	0,07	0,09	0,05	0,06	1,37	0,10	1,47
015 tokarlik	0,88	0,07	0,09	0,05	0,05	0,06	1,20	0,11	1,31
020 frezalash	1,45	0,25	0,12	0,04	0,07	0,06	1,99	0,16	2,15
025 frezalash	1,84	0,21	0,07	0,07	0,21	0,16	2,56	0,38	2,94
030 jilvirlash	1,04	0,25	0,07	0,04	0,05	0,06	1,51	0,28	1,79
Jami									11,22

3. Konstruktorkik qism

3.1. Dastgoh moslamasining bayoni va hisobi

Frezalash operatsiyasi uchun loyihalangan pnevmatik moslama yirik seriyalab ishlab chiqarish turlarida keng qo'llaniladi va u siqilgan havo bilan ishlaydi. Zagotovkani maxkamlash patronni qisuvchi kulachoklari orqali amalga oshiriladi. Zagotovka o'rnatilgandan so'ng boshqarish ruchkasi o'ngga buriladi va qisilgan havo tsilindrning chap bo'shlig'iga yuboriladi. Natijada porshen siqilgan havo tahsirida chap tomonga harakatlanadi va o'zi bilan birgalikda shtokni tortadi. Shtok o'z navbatida patronni kulachoklariga harakat uzatuvchi detallar yordamida zagotovka qo'zg'almas holatga keltiriladi. Shlitsali val detaliga ishlov berish jarayoni tugagandan so'ng boshqarish ruchkasi chap tomonga buriladi va diafragma dastlabki xolatiga keltiriladi.

Moslamaning hisobini kuch uzatmasini hisoblashdan yahni diafragmali tsilindrning zaruriy diametrini aniqlashdan boshlaymiz, yahni

$$D = \sqrt{\frac{4 \cdot W}{\Pi \cdot \eta \cdot \rho}}$$

Bu yerda W-qisish kuchi

η – pnevtoprivodning FIK

R-qisilgan havo bosimi

$$W = \frac{k \cdot 2 \cdot Mc \cdot B \cdot \eta \cdot 12}{\alpha \cdot f \cdot \tau}$$

Bu yerda K- zapas koefitsienti K=1,5

η_1 - radius $\eta_1 = 95 \text{ mm}$

d-zagotovka diametri $d = 8,7 \text{ mm}$

f-ishqalanish koefitsienti $f = 0,2$

η – ishqalanish kuchi qo'yilgan yelka

$$\eta = \frac{D \cdot D_1}{2} = \frac{212 - 155}{2} = 28,5$$

Burovchi moment

$$M_{c\theta} = 10 \cdot C_m \cdot D^k \cdot S^y \cdot K_p$$

Bu yerda $S_m = 0,0345$

$$D = 8,7 \text{ mm}$$

$$K = 2,0$$

$$y = 0,8$$

$$S = 0,23 \text{ MM/V } \delta$$

$$K' = 0,84$$

$$M_{ce} = 10 \cdot 0,0345 \cdot 8,7^2 \cdot 0,23^{0,8} \cdot 0,84 = 6,74 \cdot M = 6700H \cdot MM$$

Qiymatlarni joyiga qo'yib quyidagini olamiz.

$$W = \frac{1,5 \cdot 2 \cdot 6700 \cdot 95 \cdot 12}{8,7 \cdot 0,2 \cdot 28,5} = 462068H$$

U xolda tsilindr diametri

$$D = \sqrt{\frac{4 \cdot 46 \cdot 20 \cdot 68}{3,14 \cdot 0,9 \cdot 6 - 10^5}} = 97 \text{ mm}$$

Qabul qilamiz $D = 100 \text{ mm}$

3.2. Ø45N8 o'lchamli diametrni o'lchash uchun kalibr-skoba hisobi

1. Boshlang'ich ma'lumotlar:

1) nominal o'lcham: $D=d=45$;

2) o'tqazish H8/u8;

2. GOST 25347-82 bo'yicha berilgan maydon uchun teshik va valning dopuski chetki og'ishlarini yozib chiqamiz va ularning joylashish sxemasini quramiz

45H8 (+0,012)

45k8 (+0,035)

Teshik uchun kalibr hisobini amalga oshiramiz: $D=45 \text{ N8 (+0,012)}$.

Eng katta va eng kichik chetki o'lchamlarni aniqlaymiz:

$$D_{\max} = D + ES = 45 + 0,012 = 45,012 \text{ mm.}$$

$$D_{\min} = D + EI = 45 + 0 = 45 \text{ mm.}$$

Jadval va GOST 24853-81 bo'yicha 3 va 6 mm dan yuqori bo'lgan ushbu sifat va interval uchun kerakli kalibr o'lchamlarini aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlarni topamiz:

$Z=0,002$ mm – detalning eng kichik chetki o'lchamiga nisbatan o'tuvchi kalibr uchun dopusk maydoni o'rtasining og'ishi;

$Y=0,0015$ mm – teshik uchun yeyilgan o'tuvchi kalibr o'lchamining ruxsat etilgan chiqishi;

$H=0,0025$ mm – teshik uchun kalibr tayyorlashga bo'lgan dopusk.

Kalibrlar dopusk maydonining joylashish sxemasini quramiz.

Formulalar bo'yicha kalibr o'lchamlarini aniqlaymiz:

1) O'tuvchi PR yangi kalibr-skobaning eng katta chetki o'lchami quyidagiga teng:

$$D_{\min}+Z+H/2=45+0,002+0,0025/2=45,003 \text{ mm.}$$

2) O'tmaydigan NE kalibr-skobaning eng katta chetki o'lchami quyidagiga teng:

$$D_{\max}+H/2=45,012+0,0025/2=45,013 \text{ mm.}$$

3) Yeyilgan o'tuvchi kalibr-skobaning chetki o'lchami teng:

$$D_{\min}-Y=45-0,0015=44,9985 \text{ mm.}$$

Teshik uchun kalibrlar hisobini aniqlaymiz:

$D=45$ N8 (-0,003) va H9(+0,003), barcha mahlumotlarni 1-jadvalga kiritamiz:

$$D=45 \text{ N8}(-0,003)$$

$$Z=0,004 \text{ mm.}$$

$$Y=0,004 \text{ mm.}$$

$$H=0,003 \text{ mm.}$$

$$D_{\max}=45+(-0,003)=44,997 \text{ mm.}$$

